

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI SENATINING 11-SON YIG‘ILISHI
BAYONI**

Raislik qiluvchi:

**Ma’muriy masalalar
bo‘yicha birinchi prorektor
D.A.Nasimov**

Bayonni yurituvchi:

Protokol kotibiyati
bo‘limi bosh mutaxassisi
A.Izbasarova

2025-yil 26-dekabr

soat: 14.30

229-xona

Qatnashuvchilar: D.A.Nasimov, R.J.Hoffmann, A.Gadayev,
A.To‘xtamishov, N.Xushvaqto‘v, M.Yorqulov, N.Abduvaxidova, S.Matlabov,
F.Nurov, N.Mansurova, T.Sultanov, T.Akramova, N.Turdiyeva, O.Boynazarov,
N.Raximova, X.Ibragimov.

Taklif etilganlar: Sh.Mardanova, J.Xolboyev, Sh.Nosirov.

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda viloyat hokimligining direktiv hujjatlari.

Birinchi prorektor prof. D.A.Nasimovning axboroti.

2. 2025-yil yanvar-dekabr oylarida universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda universitet “edo.ijro.uz” elektron tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosi holati to‘g‘risida.

Ijro intizomi, devonxona va arxiv bo‘limi boshlig‘i Sh.Mardanovning axboroti.

3. 2025/2026-o‘quv yili qabul komissiyasi faoliyati bo‘yicha hisobot, magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha qabulning dastlabki natijalari.

Professional ta’lim muassasalari bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i J.Xolboyevning axboroti.

4. Oraliq nazorat (Midterm exam) imtihonlarini tashkillashtirish va o‘tkazish masalalari to‘g‘risida.

Registrar ofis bo‘limi boshlig‘i F.Nurovning axboroti.

5. Har xil masalalar.

5.1. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot kafedrası” kafedrası dotsent v.b., DSc. Akramov Ibrohimbek Isroil o‘g‘li tomonidan 60410100 – “Iqtisodiyot” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlagan “Mathematics for Economists I” fanidan

tayyorlagan “Mathematics for Economists” nomli o‘quv qo‘llanmasini nashrga tavsiya etish haqida.

“Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasini mudiri N.Raximovning axboroti.

5.2. “Tillar va global tadqiqotlar” kafedrasini dotsent vazifasini bajaruvchi, PhD U.Otayarovning “Ishbilarmonlik muloqoti fanidan amaliy topshiriqlar” va “O‘zbek tilida ish yuritish” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarini nashrga tavsiya qilish haqida.

“Tillar va global tadqiqotlar” kafedrasini mudiri T.Sultonovning axboroti.

5.3. “Tarix va madaniy meros” kafedrasini dotsent v.b., PhD Xushvaqtoq Nodirjonning “Qadimgi karvon yo‘llaridagi Turkiston va Xitoy shaharlarining xorij tarixshunosligida o‘rganilishi (ingliz tili adabiyotlar asosida)” nomli monografiyasini nashrga tavsiya qilish haqida.

“Tarix va madaniy meros” kafedrasini mudiri O.Boynazarovning axboroti.

1-MASALA

Eshitildi: Birinchi prorektor D.Nasimovning “O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda viloyat hokimligining direktiv hujjatlari ijrosi to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

Ma'muriy masalalar bo'yicha birinchi prorektori D.Nasimovning kun tartibidagi masala bo'yicha tanishtirib, bugungi masala ahamiyati bo'yicha tanishtirib o'tdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomani taqdim etdi. Bu yil tariximizda birinchi marta yalpi ichki mahsulotimiz 145 milliard dollardan oshdi. Joriy yil eksportimiz 23 foizga oshib, 33,4 milliard dollarga yetkazilishi ta'kidlandi. Eng muhimi, oltin-valyuta zaxiralarimiz ilk bor 60 milliard dollardan oshdi.

Iqtisodiyotimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard dollarga yetdi. Jami investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31,9 foizni tashkil etmoqda. Yetakchi xalqaro reyting agentliklari mamlakatimizning suveren reytingini "BB-"dan "BB" pog'onasiga ko'tardi.

Bu yil 188 ta mahalladagi 715 ming aholi yashaydigan xonadonlarga birinchi marta toza ichimlik suvi kirib bordi, yana 2 million 300 mingga yaqin aholining suv ta'minoti yaxshilandi.

Joriy yilda 5 million aholi daromadli bo'lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi. Qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag'allikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla "kambag'allikdan xoli" hududga aylandi.

Iste'dodli o'g'il-qizlarimiz ta'lim, ilm-fan, madaniyat, san'at, sport va boshqa sohalarda erishayotgan katta yutuqlari bilan ham Yangi O'zbekistonimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shayotgani ta'kidlandi.

Keyingi paytda yurtimiz global masalalar muhokama qilinadigan xalqaro muloqot maydoniga aylanib bormoqda.

Xususan, bu yil Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi, UNESCO Bosh konferensiyasining sessiyasi, "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" sammiti va xalqaro Iqlim forumiga mezbonlik qildi.

Mamlakatimizda o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlarda ishtirok etganlarning 90 foizi o'zini mahalla jamoasining bir qismi deb hisoblashi ham shundan dalolat beradi.

Mahallada Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usining yuqoriligi ushbu institut, avvalo, ijtimoiy birdamlik manbasi ekanini ko'rsatadi. Shularning barchasini hisobga olib, Prezidentimiz 2026-yilni yurtimizda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili", deb e'lon qilishni taklif qildi.

Davlatimiz rahbari 2026-yilda amalga oshiriladigan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga alohida to'xtalib o'tdi. Xususan, Ikkinchi ustuvor yo'nalish – iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish to'g'risida ta'kidlab o'tildi. Kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish kelgusi yil uchun dasturning to'rtinchi ustuvor yo'nalishidir.

2026-yildan boshlab har yili kamida 100 tadan texnikum to'liq ta'mirlanib, texnologik va talab yuqori bo'lgan kasblarga mos holda jihozlab boriladi. Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Koreya kabi davlatlarning ilg'or ta'lim dasturlari joriy qilingan texnikumlar soni 100 taga yetkaziladi.

2026-yilda 7 ta viloyatda, 2027-yilda esa qolgan hududlarda Ilg'or kasbiy mahorat texnikumi va "Kasblar shaharchasi" faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Shuningdek, 2026-yilda ijtimoiy-madaniy hayotimizdagi muhim sanalar keng nishonlanishi ta'kidlandi. Jumladan, Vatanimiz mustaqilligining shonli 35 yilligi katta bayram sifatida o'tkaziladi. Sohibqiron Amir Temur, Mir Alisher Navoiy bobolarimizning qutlug' tavallud ayyomlariga tayyorgarlikni hozirdan boshlash kerakligi qayd etildi.

Qo'shni davlatlardan va MDH mamlakatlaridan sayyohlar soni 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,1 barobarga, uzoq xorij davlatlaridan 1,5 barobarga ko'payganligi, mamlakatimizda "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil" ichki turizmni rivojlantirish dasturi doirasida aholining hududlarga 23,7 million tashriflari amalga oshirilganligi, har oyning ikkinchi haftasining shanba va yakshanba kunlari "Oila va jamoa bilan sayohatga chiqish kuni" etib belgilanganligi, respublika bo'ylab 4345 ta gid-ekskursovodlar faoliyat olib borayotganligi, joriy yilning o'zida 375 gid-ekskursovodlar tayyorlanganligi ta'kidlab o'tildi.

Kun tartibidagi 1-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Birinchi prorektor D.A.Nasimovning "O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda viloyat hokimligining direktiv hujjatlari ijrosi to'g'risida"gi axboroti ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Murojaatnomadan kelib chiqib, mas'ullar tomonidan tegishli topshiriqlar ijrosini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilsin.

Mas'ullar: N.Abduvaxidova, F.Akramova, S.Matlabov, A.Sultonov, T.Akramova.

2-MASALA

Eshitildi: Ijro intizomi, devonxona va arxiv bo'limi boshlig'i Sh.Mardanovanning "2025-yil yanvar-dekabr oylarida universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda universitet "edo.ijro.uz" elektron tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosi holati to'g'risida"gi axboroti eshitildi.

2025-yil yanvar-noyabr oylarida universitet "edo.ijro.uz" elektron tizimiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Samarqand viloyati hokimligi hamda turli tashkilotlardan jami 4845 ta hujjat kelib tushgan, shundan 4624 ta hujjat ijrosi

o'z vaqtida ta'minlangan. Hozirda 140 ta topshiriq bajarilmoqda, 80 ta topshiriq ijrosi muddatidan kech bajarilgan.

Universitetga 2025-yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida jami 29 ta murojaatlar kelib tushgan bo'lib, shundan 10 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasidan, 19 tasi Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasidan kelib tushgan 10 ta murojaatning ijrosi ta'minlangan. Murojaatlardan 4 tasining ijrosi ijobiy hal qilingan, 7 tasiga tushuntirish berilgan.

Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan 19 ta murojaatning ijrosi o'z vaqtida ta'minlangan bo'lib, shundan 8 tasining ijrosi ijobiy hal qilingan, 11 tasiga tushuntirish berilgan.

Universitet Kengashida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari tahlil qilinib, muhokama qilib borilmoqda (kengash ko'chirmalari ilova qilinadi). 2025-yilning o'tgan davri mobaynida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari tahlil qilinib, bajarilgan ishlar to'g'risida choraklik hisobotlar contact@edu.uz elektron pochta manziliga (tasdiqlangan variantining skaner nusxasi pdf, jadvallarning elektron shakli excel formatda) taqdim etilib kelinmoqda.

Kelib tushgan murojaatlar tahlil qilinganda eng ko'p murojaatlar sirtqi ta'lim talabalarining o'qishni onlayn tizimga o'tkazish hamda to'lov-kontrakt muddatini uzaytirish to'g'risidagi masalalar ekanligi ma'lum bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasidan kelib tushgan 1 ta murojaat mas'ul ijrochi tomonidan o'rganib chiqilgandan keyingi jarayonda hujjatlarni to'laligicha Ijro intizomi, devonxona va arxiv bolimiga topshirmaganligi sababli tizimga muddati o'tib hujjatlar yuklangan. Shu sababdan muddati o'tib ijro qilingan mas'ul ijrochi tomonidan "Tushuntirish xati" olinganligini ma'lum qilamiz. Shu bilan bir qatorda jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og'zaki murojaatlari bilan ishlashda barchasi ijobiy hal etilmoqda, bajarilgan ishlar yuzasidan fuqarolar hamda tegishli mas'ul idoralarga javob va ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishida faol ish olib borilmoqda.

Bundan tashqari, universitetning Senat yig'ilishida turli tashkilotlardan kelib tushgan hujjatlar hamda murojaatlar holati bo'yicha muntazam ravishda hisobotlar berib boriladi.

Kun tartibidagi 2-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Ijro intizomi, devonxona va arxiv bo'limi boshlig'i Sh.Mardanovanning "2025-yil yanvar-dekabr oylarida universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik

shaxslarning murojaatlari hamda universitet “edo.ijro.uz” elektron tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosi holati to‘g‘risida”gi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Soha prorektorlari, bo‘lim boshliqlari, dekan ofisi hamda kafedra mudirlari (T.Sultanov, O.Boynazarov, H.Ibragimov, T.Akramova, N.Raximova)ga:

- O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari, Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Viloyat hokimligi hamda turli tashkilot va idoralardan kelgan barcha turdagi topshiriqlar ijrosi “edo.ijro.uz” elektron platformasidan foydalangan holda belgilangan muddatlarga qat’iy rioya qilib sifatli bajarilishini ta’minlash vazifasi topshirilsin;
- “edo.ijro.uz” tizimiga kelib tushgan topshiriqlar ijrosini belgilangan muddat ichida bajarmaslik yoki muddati o‘tib bajargan mas’ul ijrochilarga nisbatan universitetning 2024-yil 9-yanvardagi 4-sonli buyrug‘i asosida intizomiy jazo qo‘llanilsin;
- jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashda qonunchilikda belgilangan tartiblarga amal qilinishi ta’minlasin. Universitetga kelib tushgan murojaatlar ijrosiga befarq bo‘lgan, ya’ni o‘z vaqtida ijrosini ta’minlamagan yoki muddatini o‘tkazib bajargan mas’ullarga nisbatan universitetning 2024-yil 27-fevraldagi 32-sonli buyrug‘iga asosan intizomiy jazo qo‘llanilsin.

3. Soha prorektorlari, bo‘lim boshliqlari, dekan ofisi hamda kafedra mudirlari universitetga kelib tushgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashda qonunchilikda belgilangan tartiblarga amal qilinishini ta’minlasin.

4. Universitetga kelib tushgan murojaatlar ijrosiga befarq bo‘lgan, ya’ni o‘z vaqtida ijrosini ta’minlamagan yoki muddatini o‘tkazib bajargan mas’ullarga nisbatan universitetning 2024-yil 27-fevraldagi 32-sonli buyrug‘iga asosan intizomiy jazo qo‘llanilsin.

3-MASALA

Eshitildi: Professional ta’lim muassasalari bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i J.Xolboyevning “2025/2026-o‘quv yili qabul komissiyasi faoliyati bo‘yicha hisoboti, magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha qabulning dastlabki natijalari to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 27-maydagi 197-sonli “2025/2026-o‘quv yili uchun respublika oliy ta’lim tashkilotlarida qabul jarayonini yuqori saviyada tashkil etish to‘g‘risida”gi buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 27-maydagi 197-sonli “2025/2026-o‘quv yili uchun respublika oliy ta’lim tashkilotlarida qabul jarayonini yuqori saviyada tashkil etish to‘g‘risida”gi buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining 2025-yil 30-maydagi 114-sonli “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida 2025-2026-o‘quv yili qabulini yuqori saviyada tashkil etish to‘g‘risida”gi buyrug‘i ishlab chiqildi. Shuningdek, mazkur buyruq asosida universitet qabul komissiyasi tarkibi hamda universitetda 2025/2026-o‘quv yili qabulini yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. Universitet qabul komissiyasi tomonidan universitetda abituriyentlar va ularning otalariga doimiy maslahat berib turuvchi Koll markaz tashkil qilindi. Koll markaz uchun alohida xona ajratildi va barcha zaruriy jihozlar bilan ta’minlandi. Koll markaz faoliyatini samarali olib borish maqsadida qabul jarayonining har bir yo‘nalishlari bo‘yicha mas’ullar belgilandi. Shuningdek, universitetda Koll markaz faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi to‘g‘risidagi axborotlar universitetning rasmiy veb-saytiga (<https://univ-silkroad.uz/uz/event/-announcement-14>) hamda barcha rasmiy ijtimoiy tarmoqlariga joylashtirildi. Bundan tashqari Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining rasmiy <https://t.me/edu.uz> telegram kanali orqali ham universitetning Koll markazi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ommalashtirildi.

2. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi majlisining 2025-yil 24-iyuldagi 60-2-son bayoni bilan tasdiqlangan “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti qabul parametrlarining bakalavriat va magistratura ta’lim yo‘nalishlari va o‘qitish tillari bo‘yicha taqsimlangan qabul kvotasi doirasida universitetda qabul jarayonlari tashkil etildi:

3. Universitetda yangi o‘quv yili uchun qabul boshlanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar va yangi qabul jarayonlariga bag‘ishlangan videorolik “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining veb-sayti hamda rasmiy ijtimoiy tarmoqlari orqali keng jamoatchilikka yetkazildi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasining 2025-yil 14-avgustdagi 69-3-son bayoni bilan tasdiqlangan 2025/2026 o‘quv yili uchun test sinovi natijalari qaydnomasiga muvofiq universitetning kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga talabalikka tavsiya etilganlarning soni 11 ta ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘zbek guruhlarda 506 nafar, shundan 102 ta grant, rus guruhlarda esa 296 nafar, shundan 23 ta grantni tashkil etdi. Xuddi shunday, masofaviy ta’lim shakli bo‘yicha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga 5 ta ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha talabalikka tavsiya etilganlarning soni o‘zbek guruhlarda 207 nafar, shundan 5 ta grant, rus guruhlarda esa 204 nafar, shundan 3 ta grantni tashkil qildi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasining 2025-yil 14-avgustdagi 69-3-son bayoni bilan tasdiqlangan

2025/2026-o‘quv yili uchun test sinovi natijalari qaydnomasiga muvofiq bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarining kunduzgi ta‘lim shakli bo‘yicha davlat granti asosida 118 nafar, to‘lov-kontrakt asosida 550 nafar – jami 668 nafar abituriyent o‘qishga qabul qilindi. Xuddi shunday, bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarining masofaviy ta‘lim shakli bo‘yicha davlat granti asosida jami 6 nafar, to‘lov-kontrakt asosida 323 nafar – jami 329 nafar abituriyent talabalikka qabul qilindi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasining 2025-yil 14-avgustdagi 69-3-son bayoniga 6-ilova bilan tasdiqlangan Xizmat majburiyatini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan yoki olgan jarohati tufayli nogiron bo‘lib qolgan bojxona organlari xodimlarining farzandlari ro‘yxati (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 25-maydagi PQ-122-son qaroriga 1-ilovaning 194-bandi “v” kichik bandi)ga muvofiq bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining kunduzi ta‘lim shakli bo‘yicha test sinovlarisiz umumiy qabul parametrlaridan tashqari qo‘shimcha davlat granti asosida 1 nafar abituriyent talabalikka tavsiya etildi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasining 2025-yil 20-sentabrdagi 79-5-son bayoni bilan tasdiqlangan 2025/2026-o‘quv yili uchun test sinovi natijalari qaydnomasiga muvofiq bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining kunduzgi ta‘lim shakli bo‘yicha 2 nafar abituriyent O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti grantiga nomzod abituriyent sifatida davlat granti asosida o‘qishga tavsiya etildi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Ta‘lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasining 2025-yil 20-sentabrdagi 79-5-son bayoni bilan tasdiqlangan doimiy yashash manzili va bitirgan ta‘lim muassasasi Qoraqalpog‘iston Respublikasida bo‘lgan hamda 2025/2026-o‘quv yilida talabalikka tavsiya etilmagan yoshlar uchun ajratilgan qo‘shimcha qabul parametrlari (to‘lov-kontrakt) doirasida talabalikka tavsiya etilganlar qaydnomasiga muvofiq bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarining kunduzgi ta‘lim shakli bo‘yicha 4 nafar, masofaviy ta‘lim shakli bo‘yicha 3 nafar talabalar talabalikka tavsiya etildi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 433-sonli qarorining 17-ilovasi 71-bandiga muvofiq, universitetga talabalikka qabul qilish uchun mustaqillik berilganligidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi ta‘lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi majlisining 2025-yil 24-iyuldagi 60-2-son bayoni bilan tasdiqlangan “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti qabul parametrlarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari va o‘qitish tillari bo‘yicha taqsimlangan qabul kvotasi doirasida bo‘sh qolgan o‘rinlarga

2025/2026-o‘quv yili uchun universitetning bakalavriat bosqichi kunduzgi ta’lim shakliga 92 nafar, masofaviy ta’lim shakliga 73 nafar – jami 165 nafar abituriyent to‘lov-kontrakt asosida talabalikka tavsiya etildi.

10. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasining 2025-yil 20-sentabrdagi 79-5-son bayoni bilan tasdiqlangan 2025/2026-o‘quv yilida respublika davlat oliy ta’lim tashkilotlarining magistratura mutaxassisliklariga qabul natijalari qaydnomalariga muvofiq magistratura mutaxassisliklari kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha 19 nafar, masofaviy ta’lim shakli bo‘yicha 1 nafar abituriyent davlat granti asosida, shuningdek magistratura mutaxassisliklari kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha 34 nafar, masofaviy ta’lim shakli bo‘yicha 18 nafar abituriyent to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga tavsiya etildi.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 433-sonli qarorining 17-ilovasi 71-bandiga muvofiq, universitetga talabalikka qabul qilish uchun mustaqillik berilganligidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha davlat komissiyasi majlisining 2025-yil 24-iyuldagi 60-2-son bayoni bilan tasdiqlangan “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti qabul parametrlarining magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha taqsimlangan qabul kvotasi doirasida 2025/2026-o‘quv yili uchun universitetning magistratura bosqichi kunduzgi ta’lim shakliga 31 nafar, masofaviy ta’lim shakliga 7 nafar abituriyent to‘lov-kontrakt asosida talabalikka tavsiya etildi.

12. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim tashkilotlariga qabul qilish bo‘yicha Davlat komissiyasining tegishli bayoni bilan ko‘pchilik abituriyentlar va ularning ota-onalari hamda oliy ta’lim muassasalari rektorlarining murojaatlarini inobatga olib, 2025/2026-o‘quv yilida oliy ta’lim tashkilotlarining bakalavriat hamda magistratura talabalari uchun to‘lovlarni amalga oshirish va talabalar safiga qabul qilishni rasmiylashtirishning muddati dastlab 2025-yil 31-oktabrga qadar, keyin 2026-yil 31-yanvargacha qadar (shu kuni ham) uzaytirildi.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 11 yanvardagi “Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 17-son qarori hamda “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining 2025-yil 5-avgustdagi 171-sonli buyrug‘iga asosan texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni kirish imtihonlarisiz, yakka tartibdagi suhbat orqali universitetning 2-bosqichidan o‘qishini davom ettirish uchun o‘qishga qabul qilish maqsadida tashkil etilgan suhbat natijalari qaydnomalariga muvofiq “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti talabalari safiga to‘lov-kontrakt asosida qabul qilish uchun tavsiya etilgan 1 nafar abituriyent to‘lov-kontrakt asosida bakalavriatning

kunduzgi bo‘limiga, 34 nafar abituriyent to‘lov-kontrakt asosida bakalavriatning masofaviy bo‘limiga ikkinchi kurs talabalari safiga qabul qilindi.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta‘limni olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 606-sonli qarori hamda “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetining 2025-yil 29-iyuldagi 164-sonli buyrug‘iga asosan oliy ta‘limdan keyingi ta‘limni ikkinchi mutaxassislik shaklida olmoqchi bo‘lgan nomzodlarni kirish imtihonlarisiz, suhbat asosida universitetning 2-bosqichidan o‘qishini davom ettirish uchun o‘qishga qabul qilish maqsadida tashkil etilgan suhbat natijalari qaydnomalariga muvofiq “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti talabalari safiga qabul qilish uchun tavsiya etilgan 6 nafar abituriyent to‘lov-kontrakt asosida bakalavriatning masofaviy bo‘limiga 2-bosqich talabalari safiga qabul qilindi.

Kun tartibidagi 3-masala bo‘yicha Senat a‘zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Professional ta‘lim muassasalari bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i J.Xolboyevning “2025/2026-o‘quv yili qabul komissiyasi faoliyati bo‘yicha hisoboti, magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha qabulning dastlabki natijalari to‘g‘risida”gi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.


4-MASALA

Eshitildi: Registrator ofis bo‘limi boshlig‘i F.Nurovning “Oraliq nazorat (Midterm exam) imtihonlarini tashkillashtirish va o‘tkazish masalalari to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida akademik kalendar asosida Oraliq nazoratlar (Midterm exams) jadvali Ofis registrator bo‘limi tomonidan ishlab chiqildi va O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor tomonidan tasdiqlandi. Oraliq nazoratlar jadvali 1-4-kurs bakalavriat talabalariga o‘qitilgan barcha fanlar uchun jami 65 ta guruhga 20-noyabrdan 26-noyabrga qadar bo‘lgan muddat uchun ishlab chiqildi. Oraliq nazoratlar jadvali HEMIS axborot tizimiga to‘liq kiritildi. Oraliq nazoratlar 5 kun davomida tashkil etildi.


Oraliq nazoratlarning HEMIS axborot tizimiga kiritilgan natijalari asosida quyidagi tahlillar qilindi:

1st YEAR STUDENTS' MIDTERM EXAM RESULTS




Universitetning 1-bosqich talabalari ichida eng past ko‘rsatkich 11.8% bo‘lib, bu TH-125-guruhda o‘zlashtirish sust ekanligini anglatadi. Eng yuqori ko‘rsatkichlar uchligini 16.5% bilan FLJ-125- va IR-225-guruhlar, 15.71% bilan TTK-125-guruh va 15.58% bilan Arch-125-guruh egallagan.

2nd YEAR STUDENTS' MIDTERM EXAM RESULTS




Universitetning 2-bosqich talabalari ichida eng past ko‘rsatkich esa 14.24% bo‘lib, bu Man-224-guruhda o‘zlashtirish boshqa guruhlariga nisbatan past

ekanligini anglatadi. Eng yuqori ko'rsatkichlar uchligini 17.49% bilan Log-124-guruh, 16.48% bilan MS-124-guruh va 16.4% bilan TTK-124-guruh egallagan.



Universitetning 3-bosqich talabalari ichida eng past ko'rsatkich esa 12.3% bo'lib, bu Tour-223-guruhda o'zlashtirish boshqa guruhlariga nisbatan past ekanligini ko'rsatdi. Eng yuqori ko'rsatkichlar uchligini 16.25% bilan Arch-123-guruh, 16% bilan Guide-223-guruh va 15.81% bilan Guide-123-guruh egallagan.



Universitetning 4-bosqich talabalari ichida eng past ko‘rsatkich esa 14.53% bo‘lib, bu Mantour-122-guruhda o‘zlashtirish boshqa guruhlariga nisbatan past ekanligini ko‘rsatdi. Eng yuqori ko‘rsatkichlar uchligini 17.24% bilan CH-122-guruh, 16.81% bilan Guide-122-guruh va 15.69% bilan Tour-122-guruh egallagan.

Kun tartibidagi 4-masala bo‘yicha Senat a‘zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. Registrator ofis bo‘limi boshlig‘i F.Nurovning “Oraliq nazorat (Midterm exam) imtihonlarini tashkillashtirish va o‘tkazish masalalari to‘g‘risida”gi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. HAR XIL MASALALAR

Eshitildi:

5.1. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasini mudiri N.Raximovning “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot kafedrasini” kafedrasini dotsent v.b., DSc. Akramov Ibrohimbek Isroil o‘g‘li tomonidan 60410100 – “Iqtisodiyot” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan “Mathematics for Economists I” fanidan “Mathematics for Economists” nomli o‘quv qo‘llanmasini nashrga tavsiya etish to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

“Mathematics for Economists” fanidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanma Iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishidagi bakalavr talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, 14 mavzuni qabrab olgan. Bunda vektor fazolar, chiziqli teglamalar sistemlari hamda ularni yechish usullari iqtisodga oid muammolar bilan yoritib berilgan. Bundan tashqari, matrisalar nazaryasi, ularni sodda ko‘rinishga kelitirish hamda ular ustidagi amallar bozor, market va ishlab chiqarish modellari misollari bilan keltirilgan. Qo‘llanmada nazariy hamda amaliy masala va misollar o‘zaro uyg‘unlashtirilgan holda berilgan.

Bundan tashqari, qo‘llanmada xorij tajribasi va ilmiy tadqiqotlar o‘rganilgan holda milliy kontekstga moslashtirilgan. Har bir mavzu talabalar uchun amaliy masala va misollar bilan boyitilgan bo‘lib, qo‘llanma oxirida Glossary ya’ni tushunchalar ta’rifi keltirilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma “Mathematics for Economists” fani bo‘yicha asosiy o‘quv adabiyoti sifatida iqtisodiyot va unga turdosh yo‘nalishdagi talabalarning foydalanishiga, shuningdek, oliy ta’lim muassasalari turdosh yo‘nalishlarida foydalanishga mo‘ljallangan.

O‘quv qo‘llanmani matni va uslubiy jihatlari belgilangan talablarga javob beradi.

O‘quv qo‘llanmani nashrga tavsiya etish bo‘yicha taqrizlar mavjud.

Kun tartibidagi 5.1.-masala bo‘yicha Senat a‘zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko‘rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasini mudiri N.Raximovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot kafedrasini” kafedrasini dotsent v.b., DSc. Akramov Ibrohimbek Isroil o‘g‘li tomonidan 60410100 – “Iqtisodiyot” ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun tayyorlangan “Mathematics for Economists I” fanidan “Mathematics for Economists” o‘quv qo‘llanmasini tasdiqlansin va “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga qarashli nashriyotdan universitetning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan 20 dona nashr etilishiga ruxsat berilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i Z.Sulaymonov, Tahririy-nashriyot bo‘limi bosh mutaxassisi H.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Eshitildi:

5.2. “Tillar va global tadqiqotlar” kafedrasini mudiri T.Sultanovning “Tillar va global tadqiqotlar” kafedrasini dotsent vazifasini bajaruvchi, PhD U.Otayarovning “Ishbilarmonlik muloqoti fanidan amaliy topshiriqlar” va “O‘zbek tilida ish

yuritish” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarini nashrga tavsiya qilish haqida”gi axboroti eshitildi.

“Ishbilarmonlik muloqoti” fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanma “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Turizm menejmenti fakulteti 60410100 – Iqtisodiyot: tarmoqlar va sohalar bo‘yicha, 60411200 – Marketing, 60410900 – Biznesni boshqarish bakalavriat yo‘nalishlarida tahsil oluvchi 1-kurs talabalari uchun mo‘ljallangan.

Ushbu kurs talabalarga kelajakda turli tashkilotlar bilan samarali muloqot qilishni o‘rgatadi. Shuningdek, zamon talablariga mos ravishda biznesdagi muqot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ilmiy savodxonlikni takomillashtirishga qaratilgan. Har qanday biznes muvaffaqiyati uchun samarali muloqot muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ishbilarmonlik aloqalarining turlarini tushunish va samarali muloqot qilish strategiyalarini amalga oshirish orqali korxonalar mijozlar va xodimlar bilan mustahkam aloqalar o‘rnatishga yordam beradi.

“Ishbilarmonlik muloqoti” fani notiqlik, nutq turlari, nutqiy faoliyat, nutqning kommunikativ sifatlari, nutqiy etiket, nutq tuzish usullari, nutqning tarkibiy qismlari, notiqlik masalalarini, shuningdek, iqtisodiy matnga oid so‘z va atamalarni tanlash, matnlarni tuzish, tahlil va tahrir qilish, iqtisodiyotga oid hujjatlarni to‘g‘ri yozish kabilar haqida ma‘lumot beradi.

“O‘zbek tilida ish yuritish” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmada o‘zbek tilida ish yuritish faoliyatida eng ko‘p qo‘llanadigan hujjatlar, ularni tuzish va qo‘llash masalalari yoritilgan. Shuningdek, muloqot va kommunikatsiya jarayoni, fikrlash va muloqot salohiyati mezonlari, internet maydonida muloqot qilish, taqdimot va reklama nutqini tayyorlash, ishga kirish intervyusiga tayyorlanish, CV va tashrif qog‘ozi tayyorlash haqida ma‘lumot berish orqali talabalarning yozma va og‘zaki savodxonligini oshirish maqsad qilingan.

Bu materiallar va namunalardan oliy o‘quv yurti talabalari, akademik litsey, texnikum, kollej va kasb-hunar maktablarining o‘quvchilari hamda barcha o‘qituvchilar foydalanishi mumkin.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma talabalarga dialog va muloqot jarayonini o‘rgatish, fikrlash mezonlari va muloqot salohiyati haqida ma‘lumot berish, internetda muloqot madaniyatini shakllantirish, taqdimot nutqini tayyorlash ko‘nikmalarini oshirish, rezyumeni tayyorlash ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘rgatish, ish suhbatida muloqot qilish, hujjat turlari, ularning xususiyatlari va har bir turi haqida batafsil ma‘lumot berish, sohaga oid hujjatlar mavjudligi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishish, kundalik hayotda keng qo‘llaniladigan namunaviy hujjatlar ustida ishlash orqali amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish; ilmiy maqola yozish malakasini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, o‘zbek jamiyati va

madaniyati haqida umumiy ma'lumot beradi, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini oshiradi.

O'quv-uslubiy qo'llanmalarni nashrga tavsiya etish bo'yicha taqrizlar mavjud.

Kun tartibidagi 5.2.-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. "Tillar va global tadqiqotlar" kafedrasini mudiri T.Sultanovning "Tillar va global tadqiqotlar" kafedrasini dotsent vazifasini bajaruvchi, PhD U.Otayarovning "Ishbilarmonlik muloqoti fanidan amaliy topshiriqlar" va "O'zbek tilida ish yuritish" nomli o'quv-uslubiy qo'llanmalarini nashrga tavsiya qilish haqida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Tillar va global tadqiqotlar" kafedrasini dotsent vazifasini bajaruvchi, PhD U.Otayarovning "Ishbilarmonlik muloqoti fanidan amaliy topshiriqlar" va "O'zbek tilida ish yuritish" nomli o'quv-uslubiy qo'llanmalari tasdiqlansin va "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga qarashli nashriyotdan universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan 20 donadan nashr etilishiga ruxsat berilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish Reja-moliya bo'limi boshlig'i Z.Sulaymonov, Tahririy-nashriyot bo'limi bosh mutaxassisi H.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Eshitildi:

5.3. "Tarix va madaniy meros" kafedrasini mudiri O.Boynazarovning "Tarix va madaniy meros" kafedrasining dotsent v.b., PhD Xushvaqtoq Nodirjonning "Qadimgi karvon yo'llaridagi Turkiston va Xitoy shaharlarining xorij tarixshunosligida o'rganilishi (ingliz tili adabiyotlar asosida)" nomli monografiyasini nashrga tavsiya qilish haqida"gi axboroti eshitildi.

Xushvaqtoq Nodirjonning "Qadimgi karvon yo'llaridagi Turkiston va Xitoy shaharlarining xorij tarixshunosligida o'rganilishi (ingliz tili adabiyotlar asosida)" nomli monografiyasi qadimgi karvon yo'llaridagi shaharlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishi hamda ularning xorijiy tarixshunosligida qanday o'rganilganligi masalasini yoritishqa qaratilgan. Ushbu monografiya xorij tarixshunosligida shaharlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'lib, monografiya o'zining dolzarbligi, ilmiy yondashuvlarning keng ko'lamliligi bilan e'tiborni tortadi.

Qadimgi karvon yo'llaridagi shaharlar xalqaro savdo va madaniy aloqalar orqali ellararo diplomatiyaning yorqin namunasi sifatida globallashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liklikni ko'rsatmoqda. Bugungi kunda bu shaharlarning iqtisodiy va ijtimoiy tajribasidan xalqaro munosabatlarni mustahkamlashda foydalanish zarurati ortib bormoqda. Dunyo ilmiy markazlarida qadimgi shaharlar tarixi va savdo yo'llari

bo'yicha keng qamrovli yo'llaridagi shaharlarning geografiyasi, madaniy xususiyatlari va jamiyat rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga qaratilgan.

Monografiyada karvon yo'llaridagi Turkiston va Xitoy shaharlari tarixining xorij tarixshunosligida o'rganilishi dolzarbligi va ilmiy-amaliy ahamiyati aniq asoslab berilgan. Qadimgi karvon yo'llari nafaqat savdo, balki madaniyatlararo aloqalar va diplomatiya vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu yo'llardagi shaharlarning o'rganilishi jahon tarixshunosligi uchun ham, O'zbekiston tarixiy merosini ilmiy jamoatchilikka yetkazish uchun ham muhimdir. Ushbu monografiya O'zbekiston shaharlarining boy madaniy merosini saqlash va xalqaro tarixiy tadqiqotlar doirasida yanada kengroq targ'ib qilishga hissa qo'shadi. Monografiyani ilmiy jamoatchilik uchun muhimligini inobatga olgan holda nashr etish uchun tavsiya etilgan.

Uslubiy qo'llanmani nashrga tavsiya etish bo'yicha taqrizlar mavjud.

Kun tartibidagi 5.3.-masala bo'yicha Senat a'zolari tomonidan berilgan barcha taklif va tavsiyalar ko'rib chiqilib, universitet Senati

QAROR QILADI:

1. "Tarix va madaniy meros" kafedrasini mudiri O.Boynazarovning "Tarix va madaniy meros" kafedrasining dotsent v.b., PhD Xushvaqto'v Nodirjonning "Qadimgi karvon yo'llaridagi Turkiston va Xitoy shaharlarining xorij tarixshunosligida o'rganilishi (ingliz tili adabiyotlar asosida)" nomli monografiyasini nashrga tavsiya qilish haqida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Tarix va madaniy meros" kafedrasining dotsent v.b., PhD Xushvaqto'v Nodirjonning "Qadimgi karvon yo'llaridagi Turkiston va Xitoy shaharlarining xorij tarixshunosligida o'rganilishi (ingliz tili adabiyotlar asosida)" nomli monografiyasi tasdiqlansin va "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetiga qarashli nashriyotdan universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan 20 dona nashr etilishiga ruxsat berilsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish Reja-moliya bo'limi boshlig'i Z.Sulaymonov, Tahririy-nashriyot bo'limi bosh mutaxassisi H.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Bayonnoma yurituvchi:

Protokol kotibiyati bo'limi

bosh mutaxassisi

A.Izbasarova

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI SENATINING DOIMIY A‘ZOLARI RO‘YXATI**

2025-yil 26-dekabr

soat: 14.30

229-xona

№	Familiyasi, ismi va otasining ismi	Lavozimi	Imzo
1.	prof. D.A.Nasimov	Ma'muriy masalalar bo'yicha birinchi prorektor, Senat raisi o'rinbosari	
2.	prof. R.J.Hoffmann	O'quv ishlari bo'yicha prorektor	
3.	prof. T.Q.Zou	Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiya ishlari bo'yicha prorektor	
4.	A.M.Gadayev	Ishlar boshqarmasi boshlig'i	
5.	A.Q.To'xtamishov	Ta'lim sifatini ta'minlash va akkreditatsiya bo'limi boshlig'i	
6.	N.H.Xushvaqto'v	Dekan	
7.	N.A.Abduvaxidova	Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i	
8.	S.N.Matlabov	Kasaba uyushmasi boshlang'ich tashkiloti raisi	
9.	F.J.Nurov	Registrator ofis bo'limi boshlig'i	
10.	M.Yorqulov	O'quv jarayonini rejalashtirish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i	
11.	N.Sh.Mansurova	Ilmiy tadqiqotlar bo'limi boshlig'i	
12.	T.I.Sultanov	“Tillar va global tadqiqotlar” kafedrasini mudiri	
13.	O.F.Boynazarov	“Tarix va madaniy meros” kafedrasini mudiri	
14.	X.I.Ibragimov	“Turizm” kafedrasini mudiri	
15.	T.K.Akramova	“Yozma va og'zaki tarjima tadqiqotlari” kafedrasini mudiri	
16.	N.A.Raximova	“Xalqaro biznes va kreativ iqtisodiyot” kafedrasini mudiri	
17.	N.M.Turdiyeva	“Yozma va og'zaki tarjima tadqiqotlari” kafedrasini dotsenti, PhD	
18.	VAKANT	Talabalar parlamenti prezidenti	